



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Istam Aminov¹

To'lqin Oqnazarov²

¹Samarqand davlat universiteti dotsenti

²Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi o'qituvchisi

O'QUVCHILAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING DASTURIY TIZIMINI YARATISH USULLARI

Annotatsiya. O'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilish o'z vaqtida va tizimli ravishda o'tkazilgandagina zarur o'quv va tarbiyaviy samara beradi. O'qituvchi har bir o'quvchining muvaffaqiyatlari qanday ekanligini hamma vaqt bilishi kerak, shundagina u o'quvchilarning xatosini o'z vaqtida aniqlashi va uni tuzatishi, tegishli yordam ko'rsatish mumkin bo'ladi. O'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini nazorat qilish ular uchun o'quv mehnatining motivlarini ko'p jihatdan belgilaydigan rag'batlantiruvchi faktor bo'ladi.

Kalit so'zlar: kompyuter texnologiya, texnik vositalar, qurilmalar, kasbiy muvaffaqiyat, kasbiy rivojlanish.

O'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilish o'z vaqtida va tizimli ravishda o'tkazilgandagina zarur o'quv va tarbiyaviy samara beradi. O'qituvchi har bir o'quvchining muvaffaqiyatlari qanday ekanligini hamma vaqt bilishi kerak, shundagina u o'quvchilarning xatosini o'z vaqtida aniqlashi va uni tuzatishi, tegishli yordam ko'rsatish



mumkin bo'ladi. O'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini nazorat qilish ular uchun o'quv mehnatining motivlarini ko'p jihatdan belgilaydigan rag'batlantiruvchi faktor bo'ladi.

Bugungi kunda bu jarayonlarni amalga oshirishda intellektual dasturiy tizimlardan foydalanish yangi bir muhitni yaratadi, bunda o'qitishning zamonaviy metodlari osongina integratsiya qilinadi, shu bilan birga o'qitishning an'anaviy metodlarida erishilmagan samaradorligiga erishiladi.

Har qanday jarayonlarni dasturiy modellashtirish barcha sohalarda turli model va algoritmlar yaratish texnologiyalarini qo'llash imkonini yaratmoqda. Dasturiy modellar turli ishlab chiqarish sharoitlarida, shu jumladan o'quv jarayonida o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning qulay usul va metodlarini yaratadi.

Dasturiy tizimlarning imitatsion komputerli modellari o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini, shu bilan birga uning dinamikasiga to'g'ridan-to'g'ri yoki nisbatan ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni baholovchi va tahlil etuvchi jarayonlarni amalga oshiradi.

Zamonaviy komputer texnologiyalaridan o'quv jarayonida o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashda asosiy e'tibor murakkab tizimlarni mate-matik modellari va algoritmlarini yaratishga olib keladi. Zamonaviy komputer texnologiyalaridan o'quv jarayonida o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning asosiy maqsadi turli boshqarish qarorlarini qabul qilish uchun muassasa ichki imkoniyatlarini aniqlash va olingan ijobiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilishdan iborat.

O'quvchilar bilimini reyting tizimi orqali baholashdan maqsad, o'quvchi-larda o'qitilayotgan fanlarni chuqur yegallash, topshiriqlarga ijodiy yondoshish, mustaqil fikrlash, o'z bilimini mustaqil ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish va ushbu tariqa raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga erishishdir.

O'qituvchi o'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilib, ularga baho qo'yadi. Qo'yiladigan baho ob'ektiv va haqqoniy bo'lishi kerak. To'g'ri qo'yilgan baho o'quvchilarga o'z imkoniyatlarini baholashga va zarur kuch quvvatni real perspektivalarni amalga oshirishga qaratishga yordam beradi. Bahoning tarbiyaviy roli ana shularda namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilishni to'g'ri tashkil etish uchun u, bir tomondan, har tomonlama bo'lishi, ya'ni o'quvchilarning o'quv materialini o'rganishdagi o'quv faoliyatining hamma tomonlarini qamrab olishi, ikkinchi tomondan, differensiallangan bo'lishi, ya'ni programmaning har bir asosiy masalasini



qamrab olishi zarur. Nazoratning bu tomonlarini ana shunday dialektik birlashtirishgina tegishli o'quv hamda tarbiyaviy samarani ta'minlashi mumkin.

O'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilishga differensiallangan tarzda yondoshish o'quv ishining har xil bosqichlarida ularning ishlab chiqarish tajribalarini va umumta'lim tayyorgarligini hisobga olishda ham namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini nazorat qilish va baholashda ularning individual xususiyatlari e'tiborga olinishi kerak. Tabiiyki, sinfdagi hamma o'quvchilarga bilimlarning hajmi va sifati jihatidan bir xil talablar qo'yiladi. O'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlari darajasini aniqlash yo'llaridan biri tekshirib ko'rish bo'lsa, boshqa yo'li - kundalik kuzatishlardir.

O'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olish natijalari ma'lum darajada o'qituvchi pedagogik mahoratining ko'rsatkichi bo'lib, o'qituvchi ishini tashkil etishga va o'quvchilarni o'qitish sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilar bilimini xolisona baholash imkonini beruvchi bilim, malaka va ko'nikmani nazorat qilishning tezkor tizimini yaratishdan iborat. Bu o'quvchilarning bilim olishidagi bo'shliqlarni aniqlagan holda ularni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'quvchilar bilimini nazorat qilish masalasi ham pedagog ham axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassis sifatida ko'plab olimlarni qiziqtirib kelishgan. Bugungi kunda ham an'anaviy ham kompyuterli o'qitishda o'quvchilar bilimini baholash va nazorat qilishning katta sondagi turli usullari mavjud.

Hoizirgi kunda o'quv muassasalari kompyuterlar bilan jihozlangan bo'lib, o'zining lokal tarmog'iga ega, Internet tarmog'iga ulangan, bu esa olingan bilimlarni baholashning traditsion metodlaridan yangi nazorat qilish texnologiyalariga o'tish imkonini beradi.

1. Texnik vositalaridan foydalanib bilimni nazorat qilish. Bunda tekshirishni nazorat qilishning ikkita usuli mavjud:

- o'quvchi o'qituvchidan individual topshiriqlar to'plamini olgandan so'ng, uni bajaradi va qurilmaga o'zining variant nomerini hamda har bir topshiriqning javobini kiritadi, qurilma esa kiritilgan javoblarni tekshiradi, bajarilgan ish uchun bahoni hisoblaydi va chiqaradi;
- qurilma ham topshiriqlarni kiritish, ham kiritilgan javoblarning korrektligini tekshirish, ham nazorat javoblari yoki baholarni chiqarish uchun foydalaniladi.

2. Kompyuterli bilimlarni tekshirish. Bunday holda tekshirishni tashkillashtirish quyidagilarga yo'naltirilgan:



- birinchidan, o'qituvchi mehnatini yengillashtirish uchun, y'ani uni yozma ishlarni qo'l bilan tekshirish ishlaridan ozod qilish. Natijada o'qituvchi ko'proq vaqtini o'quvchi bilan individual shug'ullanish imkoniga ega bo'ladi.
- ikkinchidan, bilimlarni tekshirish va baholash jarayonining xolislik darajasini oshirish uchun. Bilimlarni nazorat qilish maxsus computer dasturlari orqali amalga oshiriladi, bunda har bir o'quvchiga nazorat ishlarining individual to'plamini shakllantirish, topshiriqlarni ekranga chiqarish, o'quvchining javobini tahlil qilish, baho qo'yish, o'qitish dasturi yordamida nazorat natijasi va o'quvchining ishi to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlash amalga oshiriladi. Bu ma'lumotlardan o'qituvchi o'zining ish faoliyati davomida foydalanishi mumkin.

Bilimlarni komputerli nazorat qilish muammosi ikki tarzda qaraladi: uslubiy va texnik. Bilimni nazorat qilishning uslubiy tarzi pedagogik va psixologik masalalarni yechish bilan bog'liq, ya'ni bilimni nazorat qilishni tashkillashtirish didaktik nuqtai nazardan qaraladi. Uslubiy tarzga quyidagilar kiradi:

- ✓ o'quvchining bilimi, malakasi va ko'nikmasini tekshirish uchun topshiriqlarni tanlash, ya'ni nimani nazorat qilishni aniqlash;
- ✓ bilimni nazorat qilishni rejalashtirish, qachon nazorat qilishni aniqlash;
- ✓ nazorat ishlari to'plamini shakllantirishga qo'yilgan talablarni aniqlash, ya'ni qanday nazorat qilishni aniqlash.

Bilimni tekshirishning an'anaviy formalariga qaraganda bilimni, malakani va ko'nikmani komputerli nazorat qilish bir qancha ustunliklariga ega: o'quvchilar bilimni tekshirish va baholashda yangi metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, o'quvchilarning individual xarakteristikalariga adaptatsiya imkoniyatini qo'llanilishi.

O'quv jarayonida komputer texnologiyasidan foydalanish nazorat qilish maqsadini juda aniq va bir qiymatli aniqlashni, o'tkazilayotgan nazoratning maqsadini bilgan holda o'quvchilar bilimi va malakasini tekshirish uchun uslubiy materiallarni tanlashni, shu bilan birga nazorat qilish va bilimni baholash modelini yaratishni talab qiladi.

Adabiyotlar

1. Azizxujaeva N.N. Pedagogicheskie texnologiya v podgotovke uchitelya. Tashkent, 2000 yil.
2. Shishov S.E., Kalney V.A. Maktab: ta'lim sifatini monitoring qilish. - M., 2000 yil.